

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/3(4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Tillaxodjayeva Hurshida Djumavayevna</i>	
TURKISTONDA OILA VA NIKOH MUNOSABATLARINUNG O'ZIGA XOS JIHATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINIDAN KEYIN MINTAQADA YUZ BERGAN DEMOGRAFIK JARAYONLAR .....	16-24
<i>A'zamova Mahliyo Panji qizi</i>	
ARIYANAM VAYJA GEOGRAFIK NOM TARIXI .....	25-29
<i>Xo'jageldiyev Ibodulla Mamaradjab o'g'li</i>	
DEMOGRAFIK XAVF XATARNI PAYDO QILADIGAN SHART – SHAROIT VA OMILLAR .....	30-34
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i>	
SUG'D TARIXIY GEOGRAFIYASIGA DOIR MULOHAZALAR (AHAMONIYLAR DAVRI MISOLIDA) .....	35-39
<i>Boboqulov Oxunjon Axmat o'g'li</i>	
O'ZBEKİSTON SSR NING AFRIKA DAVLATLARI BILAN ILMİY-TEXNIKAVİY HAMKORLIGI .....	40-44
<i>Салаев Иҳтиёр Бахтиёрович</i>	
ХОРАЗМ ИМОРАТСОЗЛИГИДА ҒИШТНИНГ ТАЙЁРЛАНИШ УСУЛЛАРИ .....	45-49
<i>Бабажанова Дилрабо Ражаповна</i>	
“ЁДГОРГА ЕТИШИНГ!” .....	50-56
<i>Tўйчибоев Баҳодир Босимович, Абдуматов Алишер Аҳматкулович</i>	
АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖНОВ ФАОЛИЯТИДА МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ MACALASI .....	57-61
<i>Atavullayeva Shaxlo Musoyevna</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON TARAQQIYOTIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI.....	62-66

*Xolliyev Azizbek Go'zalovich*

ROSSIYA TASHQI IQTISODIY ALOQALARINING MOLIYAVIY JIHATLARI (XIX ASRNING OXIRGI CHORAGI - XX ASR BOSHI) .....	67-73
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>To'ychiyev Elnurjon Kosim o'g'li</i>	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKLATLarda MOLIYAVIY XIZMATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI: MIKROMOLIYALASHTIRISH, FINTECH VA INNOVATSION MOLIYAVIY MAHSULOTLARNING ROLINI OSHIRISH .....	74-79
<i>Зарипов Хуришид Закир ўғли</i>	
ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ИНСОН КАПИТАЛИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА УНДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ДАРАЖАСИНИ БАҲОЛАШ ЙЎЛЛАРИ .....	80-86

*Pazildinov Muxiddin Maxammadin o'g'li*

O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ..... 87-100

*Aytiyeva Sevara Allaberdiyevna*

O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTTLARI TOMONIDAN YUK TASHISH XIZMATI KO'RSATISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 101-104

*Isayev Atabek Djurabayevich*

MONETAR REJIMLARINING TURLARI VA O'ZBEKİSTONNING INFLYATSİON TARGETLASHGA O'TISHI ..... 105-112

*Алиева Надирахон Абдуваликовна*

ИПАКЧИЛИК КОРХОНАЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ..... 113-120

*Ruziyev Zafar Ikramovich*

KAPITAL BOZORI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI ..... 121-127

*Azizkulov Bakhtiyor, Saifullayev Sanjarbek*

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLATNING MOLIYAVIY – INVESTITSION SIYOSATI VA QABUL QILINGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR ..... 128-134

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI***Sultonova Shakhnoza*

JADIDCHILIK HARAKATINING MILLIY TARBIYANI YUKSALTIRISHDAGI ROLI ..... 135-140

*Razzoqova Shohsanam*

MARKAZIY OSIYO DINLARI ..... 141-147

*Ziyotova Adolat Ergashevna, Mamaraximov Kahramon Xaltuxtashevich*

YANGI O'ZBEKİSTON YOSHLARINI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN ASRASHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY ASOSLARI ..... 148-154

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Кўчимов Шуҳрат Норқизилович*

ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ТИЛИ РИВОЖИНИНГ МУҲИМ МАСАЛАЛАРИ ..... 155-158

*Рузиева Ситора Асроровна*

РОЛЬ КОНЦЕПТА «СЕМЬЯ» В ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ ЗАПАДА И ВОСТОКА ..... 159-163

*Mirsagatova Pokiza Avazbek қизи*

ОБРАЗЛИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИ ТАРЖИМА ҚИЛИШДАГИ МУАММОЛАР ..... 164-170

*Jurayeva Shalolaxon Xusanboyevna*

MUALLIF NUTQI VA DIALOGIK NUTQ SHAKLLARINING TARIXIY ROMANLARDAGI FUNKSIYASI ..... 171-175

*Ruzibayeva Aziza Kahramanovna*

J. BAYRON VA M. LERMONTOV SHE'RLARINING QISYOSLI TAHLILI ..... 176-179

*Jovbo'riyeva Saodat O'ktamovna*

INGLIZ TILIDA PSIXOLOGIK TERMINLARNING YASALISH USULLARI TAHLILI ..... 180-184

<i>Qulmamatova Muattar Otobek qizi</i>	
“BOYLIK” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK T AHLILI .....	185-191
<i>Sanakulov Zayniddin</i>	
ONOMASTIKADA ONIMIZATSIYA VA APELLYATIVIZATSIYANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI .....	192-197
<i>Saakyan Roza Yurevna, Jalilova Lola Jalilovna</i>	
TEODOR DRAYZERNING “BAXTIQARO KERRI” ROMANIDA PSIXOLOGIYA VA AXLOQ PRIZMASI ORQALI ISTAKNING ISTEHZOSINI O’RGANISH .....	198-205
<i>Xudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna</i>	
O’ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA «RAQS» TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI .....	206-211
<i>Soatmurodova Shoxista Zafar qizi</i>	
O’ZBEK TILIDA ATTORLIK LEKSIKASINING MAVZUVIY GURUHLARI .....	212-217
<i>Tadjieva Mastura Fayzullaevna</i>	
BASIS OF SIMILE IN METAPHORICAL MODELS WITH THE CONCEPT “LOVE” IN ENGLISH AND UZBEK .....	218-222
<i>Imamova Gulrux</i>	
JIN RIZNING “WIDE SARGASSO SEA” ASARIDA INTERTEKSTUALLIK .....	223-229
<i>Nazarov Sardor Shomurodovich</i>	
INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA SO’Z BIRIKMALARINING SINTAKTICK MUNOSABATLARI .....	230-234
<i>Atamurodova Feruza Tashmurotovna</i>	
JON GOLSUORSINING “FORSAYTLAR HAQIDA SAGA” ASARINING EPIK TURKUMGA XOS XUSUSIYATLARI .....	235-239
<i>Iskandarov Bahrom</i>	
MARTIN IDEN ASARINING JEK LONDON HAYOTIDAGI AKSI .....	240-243
<i>Mustafoqulov Ro’ziqul Boynazarovich</i>	
ERTAKLARDA AN’ANAVIY TASVIRLAR .....	244-251
<i>Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o’g’li</i>	
NEMIS TILIDAGI QORA VA OQ RANG KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING O’ZBEK TILIGA BERILISHI VA ULARNING SEMANTIK TADQIQI .....	252-256
<i>Djabbarova Shoira Boltaelevna</i>	
MUQOBILSIZ LEKSIKANING TARJIMA MUAMMOSI: LINGVOMADANIY T AHLIL .....	257-260
<i>Haydarova Kamola Davranovna</i>	
TURLI TIZIMLI TILLARDA OLMA LEKSEMASINING QIYOSIY-CHOG’ISHTIRMA T AHLILI .....	261-264
<i>Bektemirov Zohid Nodirovich</i>	
HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA ILOVALI ELEMENTLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI .....	265-269
<i>Murtazaeva Xadicha Nuriddinovna</i>	
TERMINOLOGIYA TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA .....	270-273

<i>Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna</i>	
DINIY BARQAROR BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	274-277
<i>Bazarova Ziyoda Eshbaevna</i>	
ZAMONAVIY LINGVISTIK TADQIQOTLARDA BADIY MATN MUALLIFI OBRAZINING O'RGANILISHI .....	278-282
<i>Abdulvohidova Nafisa Serobjon qizi</i>	
AVIATSİYAGA OID TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI (İNGLİZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	283-286
<i>Sultonqulova Feruza Bobonazarovna</i>	
AN'ANAVIY TOSH OBRAZINING TALQINLARI XUSUSIDA .....	287-291
<i>Abduganiyeva Djamilya Rustamovna, Malik Hodjaev</i>	
KETMA-KET TARJIMADA KOGNITIV YONADSHUVI VA ESLAB QOLISH USULLARI.....	292-296
<i>Amanbaeva Dilsora</i>	
«BURCH» KONSEPTINING ETNIK, MILLIY-MADANIY TALQINI.....	297-300

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i>	
BLOKCHEYN KRIMINALISTIKASI: MARKAZSIZLASHTIRISH DAVRIDA KIBER JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV .....	301-308
<i>Mirzakarimova Dilafruz Danyorovna</i>	
KIBERXAVFSIZLIK VA KIBERMAKONDA YURISDIKSIYA CHEGARALARINI BELGILASHNING ILMIY NAZARIY MASALALARI .....	309-315
<i>Raxmatova Xonzodabegim Utkir qizi</i>	
KIBER HUQUQ SOHASIDAGI YURISDIKSIYA VA XALQARO HAMKORLIKNING NAZARIY- HUQUQIY ASOSLARI .....	316-323
<i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i>	
METAVERSE PLATFORMALARIDA SHAXSIY MA'LUMOTLAR VA MAXFIYLIK MASALALARI .....	324-330
<i>Baxromova Laylo Rayim kizi</i>	
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA SAYLOV TİZİMİNING O'ZİGA XOS XUSUSIYATLARI .....	331-336

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Сафарова Замира Михлиевна</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ 10-11-Х КЛАССОВ СРЕДСТВАМИ НАЦИОНАЛЬНО-ПРЕЦЕДЕНТНЫХ ТЕКСТОВ .....	337-342
<i>Нурманов Абдиназар Ташибаевич, Каримов Мусулмонкул Бахриддинович</i>	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ РУССКОГО ЯЗЫКА К ТЕХНОЛОГИИ И ТЕХНИКЕ ЭФФЕКТИВНОГО ОБЩЕНИЯ .....	343-347
<i>Abdullayev Dilshod Xamidullo o'g'li</i>	
BOLALARDA EGILUVCHANLIK VA CHAQQONLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH .....	348-352
<i>Xayritdinov Otabek Murotjon o'g'li</i>	
MADANIY ANTROPOLOGIYANING GUMANITAR FANLAR INTEGRATORI SIFATIDAGI	

O'RNI .....	353-357
<i>Kalmenov Jalg'asbay Sarsenbaevich, Ibadullaeva Zamira Kuanishovna</i> MUSIQA FANI DARSIDA PEDAGOGIK METOD VA KASBIY MAHORATI .....	358-361
<i>Bekchanova Nilufar Boltaboyevna</i> TABIIY FANLARNI O'QITISHDA TALABALARING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA YORDAM BERUVCHI OMILLAR .....	362-367
<i>Ibragimova Dildora</i> MAXSUS MAQSADLARDA INGLIZ TILINI O'RGANISH VA O'RGATISH JARAYONIDA TEXNIKA OLIY O'QUV YURLARI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH .....	368-371
<i>Kamalova Dilnavoz Ixtiyorovna</i> FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANLARINI O'QITISHDA – EKSKURSIYANING O'RNI .....	372-377
<i>Soyibnazarov Abbosjon Ikromjonovich</i> FIZIKA FANIDAN MASALALAR YECHISHDA SIMULYATOR DASTURLARIDAN FOYDALANISH .....	378-383
<i>Хисматова Халиса Файтовна</i> ВИКТОРИНА ПО КОЛЛОИДНОЙ ХИМИИ: РАЗВИВАЕМ ЛОГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ СТУДЕНТОВ .....	384-389
<i>Toshboyeva Barinoxon</i> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA CHET TILLARI O'QITISHNING PSIXOLOGIK- METODOLOGIK KONTSEPTSIYASI .....	390-393
<i>Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna</i> MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINING LINGVODIDAKTIK AHAMIYATI .....	394-399
<i>Уралова Нурхон Махадовна</i> ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ АСОСИДА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИНИ АМАЛГА ОШИРИШ .....	400-404
<i>Бердиева Ойгул Бекмуратовна</i> НОЕВКЛИД ГЕОМЕТРИЯЛАР ЭЛЕМЕНТЛАРИ ЁРДАМИДА МАТЕМАТИКА ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ КАСБИЙ МЕТОДИК ТАЙЁРЛАШ .....	405-411
<i>Choriqulov Rustamjon Ibodullo o'g'li</i> TALABALARDA MUSTAQIL TALIM KO'NIKMALARINI O'ZLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY KO'RINISHI .....	412-416
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR .....	417-423
<i>Бурхиев Олимжон Бобоевич</i> СИСТЕМА ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ .....	424-429

# **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

Volume 4, Special Issue 3 (may, 2024). -430 p.

## **CONTENTS**

### **07.00.00 – HISTORICAL SCIENCES**

<i>Tillakhodjayeva Hurshida Djumavayevna</i>	
FEATURES OF FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN TURKESTAN AND DEMOGRAPHIC PROCESSES IN THE REGION AFTER THE INVASION OF THE RUSSIAN EMPIRE .....	16-24
<i>A'zamova Mahliyo Panji kizi</i>	
HISTORY OF ARIYANAM VAYJA GEOGRAPHICAL NAME .....	25-29
<i>Khojageldiyev Ibodulla Mamaradjab oglı</i>	
DEMOGRAPHIC PERIL CAUSES DANGER CONDITION - CONDITIONS AND FACTORS .....	30-34
<i>Norboyev Sarvar Kaxramon uglı</i>	
REMARKS ON THE HISTORICAL GEOGRAPHY OF SUGDH (IN THE CASE OF THE ACHAEMENID ERA) .....	35-39
<i>Babakulov Okhunjon Akhmat oglı</i>	
SCIENTIFIC-TECHNICAL COOPERATION OF THE UZBEKISTAN SSR WITH AFRICAN COUNTRIES .....	40-44
<i>Salaev Ikhtiyor Bakhtiyorovich</i>	
METHODS OF MAKING BRICKS IN KHOREZM ARCHITECTURE .....	45-49
<i>Babajanova Dilrabo Rajapovna</i>	
“FOLLOW TO YADGAR!” .....	50-56
<i>Tuychiboev Bakhodir Bosimovich, Abdumatov Alisher Akhmatkulovich</i>	
THE ISSUE OF UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE ACTIVITY OF ACADEMIC ABDULAHAD MUHAMMADJONOV .....	57-61
<i>Atavullayeva Shakhlo Musayevna</i>	
THE ROLE OF THE MEDIA IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN .....	62-66

### *Kholliev Azizbek Guzalovich*

FINANCIAL ASPECTS OF RUSSIA'S EXTERNAL ECONOMIC LINKS (LAST QUARTER OF THE 19th CENTURY - BEGINNING OF THE 20th CENTURY) .....	67-73
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------

### **08.00.00 – ECONOMIC SCIENCES**

#### *Tuychiyev Elnurjon Kosimovich*

OPPORTUNITIES TO USE FINANCIAL SERVICES IN DEVELOPING COUNTRIES: ENHANCING THE ROLE OF MICROFINANCE, FINTECH AND INNOVATIVE FINANCIAL PRODUCTS .....	74-79
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------

#### *Zaripov Khurshid Zakir oglı*

WAYS TO ASSESS THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL AND THE LEVEL OF EFFECTIVE USE OF IT IN KHORAZM REGION .....	80-86
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------

#### *Pazildinov Mukhiddin Makhammedin oglı*

DEVELOPMENT TENDENCIES OF ELECTRONIC COMMERCE IN UZBEKISTAN .....	87-100
-------------------------------------------------------------------	--------

<i>Aytiyeva Sevara Allaberdiyevna</i>	
IMPROVEMENT OF THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC FUNDAMENTALS OF THE PROVISION OF CARGO TRANSPORTATION SERVICES BY SMALL BUSINESS SUBJECTS IN UZBEKISTAN .....	101-104

<i>Isaev Atabek Djurabayevich</i>	
TYPES OF MONETARY REGIMES AND UZBEKISTAN'S TRANSITION TO INFLATION TARGETING .....	105-112

<i>Alieva Nadirakhan Abdumalikovna</i>	
OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING THE MANAGEMENT PROCESS OF INNOVATION ACTIVITIES IN SERIKING ENTERPRISES .....	113-120

<i>Ruziev Zafar Ikramovich</i>	
WAYS TO DEVELOP CAPITAL MARKET INFRASTRUCTURE .....	121-127

<i>Azizkulov Bakhtiyor, Saifullayev Sanjarbek</i>	
STATE FINANCIAL - INVESTMENT POLICY AND ACCEPTED ECONOMIC REFORMS IN THE DIGITAL ECONOMY .....	128-134

## 09.00.00 – PHILOSOPHICAL SCIENCES

<i>Sultonova Shakhnoza</i>	
THE ROLE OF THE JADIDISM MOVEMENT IN PROMOTING NATIONAL EDUCATION .....	135-140

<i>Razzakova Shahsanam</i>	
THE RELIGIONS OF CENTRAL ASIA .....	141-147

<i>Ziyotova Adolat Ergashevna, Mamarakhimov Khakhramon Khaltukhtashevich</i>	
THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL BASIS OF PROTECTING YOUNG PEOPLE OF NEW UZBEKISTAN FROM IDEOLOGICAL THREAT .....	148-154

## 10.00.00 – PHILOLOGICAL SCIENCES

<i>Kuchimov Shukhrat Norkizilovich</i>	
IMPORTANT ISSUES OF STATE LANGUAGE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN .....	155-158

<i>Ruzieva Sitora Asrorovna</i>	
THE ROLE OF THE CONCEPT "FAMILY" IN THE LINGUOCULTURES OF THE WEST AND EAST .....	159-163

<i>Mirsagatova Pokiza Avazbek kizi</i>	
DIFFICULTIES IN TRANSLATING FIGURATIVE PHRASEOLOGICAL UNITS .....	164-170

<i>Jurayeva Shalolakhan Khusanboyevna</i>	
THE FUNCTION OF THE AUTHOR'S SPEECH AND DIALOGICAL FORMS OF SPEECH IN HISTORICAL NOVELS .....	171-175

<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF J. BYRON AND M. LERMONTOV'S POETRY .....	176-179

<i>Jovbo'riyeva Saodat O'ktamovna</i>	
ANALYSIS OF FORMING PSYCHOLOGICAL TERMS IN ENGLISH .....	180-184

<i>Qulmamatova Muattar Otabek qizi</i>	
LINGUOCULTURALOGICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF "WEALTH" .....	185-191

<i>Sanakulov Zayniddin</i>	LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF PROPRIALISATION AND APPELLATIVISATION IN ONOMASTICS .....	192-197
<i>Saakyan Roza Yurevna, Jalilova Lola Jalilovna</i>	EXPLORATION OF IRONY OF DESIRES THROUGH THE LENS OF PSYCHOLOGY AND MORALITY IN THEODORE DREISER'S NOVEL "SISTER CARRIE" .....	198-205
<i>Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna</i>	LINGUISTIC FEATURES OF «DANCE» TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH .....	206-211
<i>Soatmurodova Shoxista Zafar qizi</i>	THEMATIC GROUPS OF THE PERFUMERY LEXICON IN THE UZBEK LANGUAGE .....	212-217
<i>Tadjieva Mastura Fayzullaevna</i>	BASIS OF SIMILE IN METAPHORICAL MODELS WITH THE CONCEPT "LOVE" IN ENGLISH AND UZBEK .....	218-222
<i>Imamova Gulrukha</i>	EXPLORING INTERTEXTUALITY IN JEAN RHYS "WIDE SARGASSO SEA" .....	223-229
<i>Nazarov Sardor Shomurodovich</i>	SYNTACTIC RELATIONSHIPS OF WORD COMBINATIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....	230-234
<i>Atamurodova Feruza Tashmurotovna</i>	FEATURES OF JOHN GALSWORTHY'S EPIC SERIES THE FORSYTH SAGA .....	235-239
<i>Iskandarov Bahrom</i>	MARTIN EDEN'S REFLECTION ON THE LIFE OF JACK LONDON .....	240-243
<i>Ruzikul Mustafokulov Boynazarovich</i>	TRADITIONAL IMAGES IN FAIRY TALES .....	244-251
<i>Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o'g'li</i>	TRANSLATION OF GERMAN BLACK AND WHITE PHRASEOLOGISMS INTO UZBEK LANGUAGE AND THEIR SEMANTIC ANALYSIS .....	252-256
<i>Djabbarova Shoira Boltaevna</i>	THE TRANSLATION PROBLEM OF NON-EQUIVALENT LEXICON: A LINGUOCULTURAL ANALYSIS .....	257-260
<i>Haydarova Kamola Davranovna</i>	COMPARATIVE-CONTRASTIVE ANALYSIS OF THE APPLE LEXEM IN DIFFERENT SYSTEMIC LANGUAGES .....	261-264
<i>Bektemirov Zohid Nodirovich</i>	LINGUOPRAGMATIC PROPERTIES OF ADJUNCTIVE ELEMENTS IN MODERN GERMAN .....	265-269
<i>Murtazaeva Xadicha Nuriddinovna</i>	TERMINOLOGY AS AN OBJECT OF RESEARCH .....	270-273
<i>Khudoynazarova Oglonoy Allamurodovna</i>	SEMANTIC CHARACTERISTICS OF RELIGIOUS STABLE UNITS .....	274-277
<i>Bazarova Ziyoda Eshbaevna</i>	THE STUDY OF THE PROBLEM OF THE IMAGE OF THE AUTHOR OF A LITERARY TEXT IN MODERN LINGUISTIC RESEARCH .....	278-282

*Abdulvohidova Nafisa Serobjon qizi*  
 LEXICOGRAPHIC CHARACTERISTICS OF AVIATION TERMS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH  
 AND UZBEK LANGUAGES) ..... 283-286

*Sultankulova Feruza Bobonazarovna*  
 ON THE INTERPRETATIONS OF THE TRADITIONAL STONE IMAGE ..... 287-291

*Abduganiyeva Djamilya Rustamovna, Malik Hodjaev*  
 COGNITIVE PROCESSING AND MEMORY TECHNIQUES IN CONSECUTIVE  
 INTERPRETATION ..... 292-296

*Amanbaeva Dilsora*  
 СИСТЕМА ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ КАК СРЕДСТВО  
 ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ ..... 297-300

## 12.00.00 – LAW

*Abdullayeva Sabokhat Asatullo qizi*  
 BLOKCHEYN FORENSICS: A MODERN APPROACH TO CYBER CRIME INVESTIGATION IN AN  
 ERA OF DECENTRALIZATION ..... 301-308

*Mirzakarimova Dilafruz Danyorovna*  
 SCIENTIFIC THEORETICAL ISSUES OF DETERMINING THE BOUNDARIES OF JURISDICTION IN  
 CYBER SECURITY AND CYBER SPACE ..... 309-315

*Rakhmatova Khanzodabegim Utkir kizi*  
 THEORETICAL-LEGAL BASIS OF JURISDICTION AND INTERNATIONAL COOPERATION IN THE  
 FIELD OF CYBER LAW ..... 316-323

*Gulomov Shokhrukh Islomjon oglı*  
 PERSONAL INFORMATION AND PRIVACY ISSUES ON THE METAVERSE PLATFORMS..324-330

*Bakhromova Laylo Rayim kizi*  
 SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ELECTION SYSTEM IN THE REPUBLIC OF  
 UZBEKISTAN ..... 331-336

## 13.00.00 – PEDAGOGICAL SCIENCES

*Safarova Zamira Mihlievna*  
 FORMATION OF LINGUOCULTURAL COMPETENCE IN STUDENTS OF 10-11TH GRADES BY  
 MEANS OF NATIONAL PRECEDENT TEXTS ..... 337-342

*Nurmanov Abdinazar Tashbaevich, Karimov Musulmonkul Bakhridinovich*  
 PRACTICAL ASPECTS OF PREPARING A FUTURE RUSSIAN LANGUAGE TEACHER FOR  
 TECHNOLOGY AND EFFECTIVE COMMUNICATION TECHNIQUES ..... 343-347

*Abdullayev Dilshod Xamidullo o'g'li*  
 DEVELOPING FLEXIBILITY AND RESILIENCE IN CHILDREN ..... 348-352

*Khayritdinov Otabek Murotjon oglı*  
 THE ROLE OF CULTURAL ANTHROPOLOGY AS AN INTEGRATOR IN THE SYSTEM OF  
 HUMANITIES ..... 353-357

*Kalmenov Jalgasbay Sarsenbaevich, Ibadullaeva Zamira Kuanishovna*  
 PEDAGOGICAL METHOD AND PROFESSIONAL SKILLS IN A MUSIC LESSON ..... 358-361

*Bekchanova Nilufar Boltaboyevna*  
 FACTORS HELPING TO DEVELOP STUDENTS CREATIVE SKILLS IN NATURAL SCIENCE  
 TEACHING ..... 362-367

*Ibragimova Dildora*

- DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL COMPETENCE OF TEACHERS OF TECHNICAL UNIVERSITIES IN THE PROCESS OF LEARNING AND TEACHING ENGLISH FOR SPECIAL PURPOSES ..... 368-371

*Kamalova Dilnavoz Ikhtiyorovna*

- THE ROLE OF THE EXCURSION IN TEACHING THE SCIENCES OF PHYSICS AND ASTRONOMY ..... 372-377

*Soyibnazarov Abbosjon Ikromjonovich*

- USING SIMULATION PROGRAMS IN SOLVING PHYSICS PROBLEMS ..... 378-383

*Khalisa Faitovna Khismatova*

- QUIZ ON COLLOIDAL CHEMISTRY: DEVELOPING LOGICAL THINKING OF STUDENTS ..... 384-389

*Toshboyeva Barinoxon*

- PSYCHOLOGICAL AND METHODOLOGICAL CONCEPT OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRIMARY SCHOOL CHILDREN ..... 390-393

*Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna*

- LINGUODIDACTIC SIGNIFICANCE OF INTERCULTURAL COMPETENCE ..... 394-399

*Uralova Nurkhan Makhadovna*

- IMPLEMENTATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION ..... 400-404

*Berdieva Aygul Bekmuratovna*

- PROVIDING PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF MATHEMATICS TEACHERS WITH THE HELP OF ELEMENTS OF NON-EUCLIDEAN GEOMETRIES ..... 405-411

*Choriquulov Rustamjon Ibodullo o'g'li*

- MODERN VIEW OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN MASTERING INDEPENDENT LEARNING SKILLS IN STUDENTS ..... 412-416

*Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna*

- INNOVATION PROCESSES IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ..... 417-423

*Burkhiev Olimjon Boboevich*

- SYSTEM OF APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGY AS A MEANS OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN A UNIVERSITY ..... 424-429

**09.00.00-FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES**

**Received:** 05 May 2024

**Accepted:** 10 May 2024

**Published:** 25 May 2024

*Article / Original Paper*

**THE ROLE OF THE JADIDISM MOVEMENT IN PROMOTING NATIONAL EDUCATION**

**Sultonova Shakhnoza**

Bukhara State University, Lecturer of Islamic history and source studies, philosophy department

**Abstract.** This article examines the ideas of the Jadidism movement and their role in the development of Central Asian countries and in the thinking of society. Also, the idea of liberating the Uzbek people from colonial oppression and backwardness by starting the spiritual development of the Jadidism was analyzed in the political, legal and social foundations of the Jadidism.

**Key words:** jadidism, enlightenment, democracy, development, reform, spirituality, value, education, upbringing, civil society, colonialism.

**JADIDCHILIK HARAKATINING MILLIY TARBIYANI YUKSALTIRISHDAGI ROLI**

**Sultonova Shakhnoza**

Bukhara State University, Lecturer of Islamic history and source studies, philosophy department

**Abstract.** This article examines the ideas of the Jadidism movement and their role in the development of Central Asian countries and in the thinking of society. Also, the idea of liberating the Uzbek people from colonial oppression and backwardness by starting the spiritual development of the Jadidism was analyzed in the political, legal and social foundations of the Jadidism.

**Key words:** jadidism, enlightenment, democracy, development, reform, spirituality, value, education, upbringing, civil society, colonialism.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N19>

**Kirish.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida vujudga kelgan jadidchilik harakati murakkab hamda o'ta muhim bo'lgan tarixiy yo'lni bosib o'tdi deb bemalol ayta olamiz. Jadidlar xorijiy mamlakatlardagi taraqqiyot, islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning go'yaviy-falsafiy tajribasini o'z harakatlarining asosi sifatida qabul qildilar. O'z navbatida, ushbu tajribalarni milliy va diniy qarashlarga asos sifatida qayta yaratishga harakat qildilar. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, jadidchilik mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyot yo'llaridagi turli asoslarning to'qnashuv maydoniga ham aylanib, uning mustamlakachilikka qarshi kurashdagi asosiy falsafasi xuddi shu murakkab yo'lda shakllanib bordi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jadidchilik harakatining milliy tarbiyamizda tutgan roli haqida yurtimizdagi S. Abduvohidov, X. Ashurova kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida amalga oshirilgan. Xususan, Z. Axmedova jadidchilikka tamal toshini qo'ygan ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini alohida o'rgangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy ishda analiz va sintez, analogiya, umumlashtirish, siyosiy tahlil, tizimlashtirish, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalilanilgan.

**Tahlillar va natijalar.** Jadidchilik harakati jahon ijtimoiy va milliy qadriyatlar tizimiga asoslangan holda faoliyat olib borgan oqim bo'lib, Markaziy Osiyoning mahalliy aholisi manfaatlariga faol xizmat qilgan hamda ijtimoiy taraqqiyotning tegishli ehtiyojlarini to'la qondira oladigan harakat sifatida shakllangan. Jadidchilik harakati ma'rifatparvarlikdan kuchli siyosiy harakatgacha bo'lgan tizimli yuksalish yo'lidan yurdi. Shu sababdan, jadidchilik harakat yo'nalishini ikki davrga bo'lishimiz mumkin. Bular:

*Birinchi davr*, ma'rifatparvarlik bosqichi;

*Ikkinci davr*, siyosiy bosqich.

Shu o'rinda aytish mumkinki, jadidlarning davlatchilik borasidagi qarashlari harakat shakllana boshlagan davrlardanoq yuzaga kelgan hamda ikkinchi bosqichda aniq bir shaklga kirgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergen yo'lidan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir" [1].

Aytish mumkinki, barcha davrlarda adabiyot jaholatga qarshi kurashish vositasi bo'lib xizmat qilgan, shu asosda jadidlar ham badiiy adabiyotdan xalqni qoloqlik, g'aflat va qaramlik zulmidan qutqarish quroli sifatida foydalanganlar. Shu o'rinda Prezidentimizning Oliy Majlisga va xalqimizga qilgan Murojaatnomasida ma'rifatparvarlarimizning yaqin tariximizda tutgan o'rni naqadar buyuk ekanligini quyidagi so'zlaridan bilishimiz mumkin: "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur" [2].

O'z faoliyatlari davomida jadidlar ta'lim sohasida islohotlar o'tkazish hamda "usul jadid" yoki "yangi usul" maktablarini targ'ib etish va yuksaltirishga bor kuch va g'ayratlarini berib harakat qilganlar. Bu islohotlarni amalga oshirish yo'lida jadidlarimiz ixtiyorlarida mavjud bo'lgan jamiki resurslardan, xususan, iste'dodlari, shaxsiy mablag'lari, uy-joylari, siyosiy va madaniy institutlar, matbuot hamda teatr, ma'rifat uylaridan to'liq foydalanganlar, hattoki o'z umrlarini ham fido qilishgan. Avval Chor hukumati, keyin esa sho'rolar davlati, ichki qora kuchlar – asl yo'lidan adashgan qadimchi va johil ulamolar tomonidan amalga oshirilgan zulm-zo'ravonliklar, tazyiqlar, quvg'inlar, suiqasdlarga qaramay, jadid bobolarimiz o'zlarini ixtiyor etgan yo'lidan also qaytmadilar.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy, madaniy va siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, jadidchilik harakatining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni tasnif etish mumkin:

1. Milliy o'zlikni anglash g'oyasi bo'yicha xalqqa tushunchalar berish;
2. Ma'rifatchilik g'oyasi asosida jadid milliy ta'lim-tarbiya dasturini ishlab chiqish hamda targ'ib etish;
3. Ijtimoiy-siyosiy ongni rivojlantirish, shu orqali milliy istiqlol va davlatchilik xususidagi ma'rifatparvar g'oyalarni xalq orasida yuksaltirish;
4. Huquqiy tenglik g'oyasida qonun orqali mustahkamlash, ozodlik va ijtimoiy adolat g'oyasini xalq orasida rivojlantirish;
5. Mamlakatda milliy til g'oyasini shakllantirish;
6. Milliy adabiyot rivojlantirish g'oyasi asosida jadid adabiyoti nashrini kengaytirish, bu orqali xalq ma'naviyatini o'stirish;
7. So'z va matbuot erkinligini hamda milliy matbuot asosida ma'rifatparvar g'oyalarni ommaga keng targ'ib etish;
8. Milliy teatr sohasini rivojlantirish hamda bu orqali jadid g'oyalari xalq ongiga singdirish.

Jadidchilar jamiyat taraqqiy etishi uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan asosiy g'oya va maqsadlar sifatida quyidagilarni e'tirof etganlar:

**birinchidan**, Turkiston o'lkasini o'rta asr qoldiqlaridan, feodal qoloqlik va diniy fanatizmdan ozod etish va qutqarish;

**ikkinchidan**, xalqni va millatni taraqqiyot va rivojlanish yo'li sari boshlab borish uchun "eski uslub" orqali o'tiladigan ko'nikmalardan butunlay voz kechish;

**uchinchidan**, Markaziy Osiyo hududida yagona davlat qurish;

**to'rtinchidan**, konstitutsiyaviy va parlament tizimiga asoslangan boshqaruv uslubi bilan amalga oshiriladigan erkin va farovon jamiyatni shakllantirish;

**beshinchidan**, Turkiy tillarga davlat tili maqomini berish;

**oltinchidan**, mamlakatda milliy pul birliklarini va milliy armiyani shakllantirish.

Aytish mumkinki, jadidchilik harakatining O'zbekistonga ko'p jihatdan o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, ushbu ma'rifatparvarlik harakatlari davomida an'anaviy madrasalarga qarshilik ko'rsatuvchi zamonaviy uslublarga asoslangan ta'lim muassasalari paydo bo'la boshladi. Ushbu davrda ayollar ta'limiga alohida e'tibor qaratildi hamda jamiyat normalariga asta-sekinlik bilan o'zgartirishlar kiritila boshlandi. Shu bilan birgalikda, jadidlar tanqidiy tafakkurni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratishdi. Bu orqali xalqning siyosiy fikriga ta'sir etib, intellektual munozaralarga yo'l ochib berishdi hamda mintaqaning madaniy jihatdan rivojlanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishdi. Ma'rifatparvarlar Markaziy Osiyo jamiyatining turli sohalarini, jumladan, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy amaliyotni yangilash hamda ushbu sohalarda islohotlar qilishni maqsad qilganlar. Jadidlar va jadidchilik harakati yuqorida ko'rsatilgan sohalarda quyidagi islohotlarni amalga oshirdilar:

**Ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar:** Jadidlar ilmiy va dunyoviy bilimlarga asoslangan holda zamonaviy ta'limni targ'ib qildilar. Shuningdek, ular an'anaviy islam ta'limini fan, matematika va adabiyot kabi fanlarni o'z ichiga olgan modernizatsiyalashgan o'quv dasturi bilan almashtirishga harakat qildilar. Jadid ziyyolilari tomonidan amalga oshirilgan ushbu islohotlar asosida yangi maktab va o'quv yurtlari barpo etilishi O'zbekistonning madaniy va ma'rifiy ko'rinishini qayta qurishda hal qiluvchi rol o'ynadi.

**Ayollar ta'limidagi islohotlar:** Jadidlar an'anaviy gender me'yorlariga qarshi chiqishdi hamda ayollarga ta'lim berishni yo'lga qo'yish sohasida eng birinchilardan bo'lishgan.

Ma'rifatparvarlar jamiyat taraqqiyotida ayollarning bilim olishi zarurligiga qat'iy ishonganlar. Shu sabali, qizlar uchun maktablar tashkil etganlar hamda ularning intellektual va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishga harakat qilganlar.

***Madaniy va ijtimoiy hayotni yaxshilash borasida amalga oshirilgan islohotlar:***

Jadidlar Markaziy Osiyo jamiyatini yuksaltirish uchun madaniy va ijtimoiy islohotlarni qo'llab-quvvatladilar. Bu islohotlar xalqni yanada oqilona va tanqidiy fikrlashga intilishlarida, shuningdek, adabiyot va san'atni rivojlantirishda o'z ifodasini topgan. Ma'rifatparvarlarning ushbu o'zgarishlardan ko'zlangan asosiy maqsadi esa milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish orqali an'anaviy islom amaliyotlari va zamonaviy, ilg'or qadriyatlar orasidagi tafovutni bartaraf etishdan iborat edi.

***Til islohotlari:*** Jadidlar xalq tilidan, jumladan, o'zbek tilidan maorif va adabiyot sohasida foydalanish tarafdoi bo'lganlar. Bu orqali ular an'anaviy islom ta'limida arab va fors tillari o'rniga xalq tilidan keng foydalanishni maqsad qilganlar, ya'ni asosiy maqsad xalq tilini yuksaltirish bo'lgan. Shuningdek, til islohotlari mahalliy aholi uchun ta'lim olishni yanada osonroq qilish hamda O'zbekiston xalqining madaniy o'ziga xosligini mustahkamlashga qaratilgan islohot sifatida qaralgan.

***Siyosiy ta'sirlar:*** Birinchi navbatda madaniy-ma'rifiy islohotlarga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, ma'rifatparvarlar o'z harakatlarida siyosiy mazmunga ham ega edi. Ularning taraqqiyot va yuksalish g'oyalari ayrim shaxslar tomonidan amalda bo'lgan siyosiy va diniy hokimiyatlarga qarshi kurash sifatida baho berilgan [3].

Ma'rifatparvarlik harakatining keyingi bosqichi sifatida namoyon bo'lgan jadidchilik harakati va uning namoyondalari xalqni mustamlakachilik zulmi hamda feudal qoloqlikdan taraqqiyotga boshlab borish, milliy mustaqillikka erishish uchun kurashda o'zlarining har narsaga tayyor ekanliklarini ko'rsatganlar. Harakatning ijtimoiy tarkibi dastlab turli xil tabaqa vakillaridan iborat bo'lgan hamda ushbu tarkibdan madrasa talabalari, yangi usul mifik o'qituvchilarining asosiy qatlami joy olganlar. Shuningdek, maorif sohasida islohotlarni amalgalashish borasida "usuli jadid" maktabalarini tashkil etishga kirishilgach, birinchi bo'lib 1893-yili Samarqandda, 1898-Qo'qonda, 1899-yil eski Toshkent hamda Andijonda, 1900-yil Buxoroda ushbu maktablar o'z faoliyatini boshlagan. 1903-yilga kelib esa 102 ta ilk va 2 ta o'rta jadid maktablar tashkil etilib, o'zlarining dasturlari asosida o'quvchilarga ilm berishni boshlaganlar. Ushbu maktablardan 6 tasi Buxoro amirligi va 8 tasi Xiva xonligi yerlarida ochilgan [4].

Bu maktablarda diniy va dunyoviy ta'lim-tarbiya hamda ilm o'zaro uyg'unlashtirilgan holda o'tilgan. Ta'lim jarayonlarida esa yakka o'qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o'tilgan. Sinflarda partalar, geografiya xaritalari, globus va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalan boshlaganlar. Maktablarda rus revolyutsiyasi ta'sirida paydo bo'lgan feudal tartiblarga va mustamlakachilik rejimiga qarshi qaratilgan g'oyalalar bilan birga mahalliy aholini o'qish-o'rganishga, ma'rifatni egallahsha yo'naltirish kuchli bo'lgan. Shuningdek, ilg'or Yevropa ilm-fani va madaniyatini egallahsha bo'lgan da'vat muhim o'rinni egallagan. Milliy ozodlik harakatining kuchayishi natijasida jadidlar orasida xalq manfaatlarini himoya qiluvchi ko'plab ilg'or fikrlovchi kishilar maydonga chiqa boshlashdi. Xususan, ularga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Saidahmad Siddiqiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Tavallo, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxujayev, Abdulvohid Burhonov, Sadreddin Ayniy, Obidjon Mahmudov, Ishoqxon To'ra Ibrat, Hamza,

Cho'lpon, Muhammadsharif So'fizoda, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimovlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Ushbu ma'rifatparvarlarning sa'y-harakati bilan jadidchilik harakati o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishdi.

Keeling, Turkistonda jadidchilikning tarqalishiga katta hissa qo'shgan jadidchilar haqida qisqacha fikr bildirib o'tsak.

Samarqandda jadidchilik harakatining yana bir yirik namoyandası **Mahmudxo'ja Behbudiy** (1875-1919) Rossiyaning yirik shaharlarida rus madaniyati va tatar jadidchilik harakati namoyandalari bilan suhbat olib borib, milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan qutulish, mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lish muammolari bilan kurasha oladigan zamonaviy bilimga ega savodli kadrlar jamiyat hayoti uchun zarurligini anglab yetdi [5]. Vataniga ilg'or g'oyalari bilan qaytgan zahoti o'z uyida kambag'al bolalar uchun yangi usul maktabini ochdi hamda shu mакtabda tarix, geografiya, adabiyotdan dars berib, yoshlarga ilg'or fikr va bilimlarni yetkazdi. Alloma islohotni maktab va madrasalardan boshlash zarurligini, millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan chambarchas bo'g'liq ekanligini aniq bilardi. Behbudiy 1904-1909 yillarda o'z maktablari uchun "Risolai asbobi savod", "Risolai jug'rofiyai umroniy", "Risolai jug'rofiyai Rusiy", "Amaliyoti islom", "Muxtasar tarixi islom" kabi darsliklar yozdi [6].

**Munavvarqori Abdurashidxonov** (1878-1929) Turkiston ma'rifatlaridan biri sifatida ma'lum va mashhur bo'lgan yangi usul maktablariga asos solgan hamda ular uchun darsliklar yaratgan O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yetakchisi, buyuk tarixiy shaxs. Munavvarqori Abdurashidxonov 1901-yilda Toshkentda "Usuli jadid" maktabini ochgan hamda bu maktablar uchun maxsus ta'lim dasturlari tuzib chiqqan. Uning "Adibi avval" (1907), "Adib us-sani" (1907), "Metodik hisob", "Tarixi Islomiya" (1912) va to'rt qismdan iborat "O'zbek tili darslari" darsliklari shular jumlasidandir.

Jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri **Abdulla Avloniy** (1878-1934) o'z zamondoshlari va izdoshlari singari yangi usul maktablaridan biriga asos solgan hamda ular uchun darsliklar yaratib, o'quvchilarni ilmlı qilgan yetuk ma'rifatparvar hisoblanadi. Uning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", ayniqsa, maktab o'quvchilari uchun darslik sifatida tayyorlangan "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darsliklari mashhur bo'lgan.

Buxorodagi jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan yana biri **Abdurauf Fitratdir** (1886-1938). Ushbu ma'rifatparvar 1909-yili Istanbulda nashr etilgan "Munozara" asarida Buxoro amirligi idorasida tegishli islohot va o'zgarishlar qilish zarurligi g'oyasini ilgari surgan. Shuningdek, ushbu asarda "Usuli jadid" deb nomlangan yangi ta'lim tizimining asoslari keltirilgan. Fitrat ushbu asarida butun vujudi, olovli va jo'shqin qalbi, bunyodkor g'oyalari va o'zining faolligi bilan yurt yoshlarini rivojlangan yangi dunyo sari safarbar etgan. Yuqorida sanab o'tilgan milliy tiklanish harakati vakillari yangicha uslubdagi maktablar ochib, uni uslubiy jihatdan ta'minlashga harakat qilganlar, bu orqali esa mamlakat rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar deb, hech shubhasiz ayta olamiz.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati eng yirik uyushgan va jamiyat tafakkuri yuksalishida muhim rol o'ynagan oqim sifatida tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Ularning O'zbekiston jamiyatida xalq maorifi, ta'limni rivojlantirish hamda yetuk kadrlar tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratganliklari bugungi zamonaviy jamiyat uchun ham o'zining aktualligini yo'qotmay kelmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ularning yillar davomida xalqimiz, millatimiz, vatanimiz va jamiyatimiz taraqqiyoti uchun beminnat xizmatlari, hatto bu

yo'lida o'z jonlarini ham ayamaganliklari xalqimiz yodidan hech qachon chiqmaydi. Jadidchilarimiz millat orzusi yo'lida uzoq vaqt davomida ozodlik va hurlik uchun kurashib kelishdi. Bugungi kundagi Yangi O'zbekistonimiz uchun ular qoldirib ketgan mafkura poydevor vazifasini o'tamoqda.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi// "Xalq so'zi" gazetasi, 2023-yil 23-dekabr, №274 (8617).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojjatnomasi// "Xalq so'zi" gazetasi, 2022-yil 21-dekabr, №272 (8334).
3. Ergashov U.A. Jadidlar va jadidlar harakatining Markaziy Osiyodagi ijtimoiy muhitiga ta'siri// "Jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi: tarix va zamonaviylik" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 2024. -B.107.
4. Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun. -T.: Cho'lpon, 1994. -B.28.
5. Turdiyev, B. (2021). Behbudi's views on the spiritual renewal of society. Центр Научных Публикаций (buxdu.uz), 5(5).
6. Abbosova Sh.T. Jadidlarning milliy ma'rifiy islohotlarga qo'shgan hissalari// "Jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi: tarix va zamonaviylik" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 2024. -B.210.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº S/3(4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулити чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).